

2-TOM, 11-SON

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR
O'QUVCHILARIDA IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISH

Shonazarova Sevara Rashidovna

Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda aksologik yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Aksologik yondashuv orqali o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularda ijtimoiy moslashuvchanlik, madaniy va axloqiy bilimlarni shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda badiiy asarlar, madaniy meros, o'yin usullari va dialogik ta'limning roli ko'rsatilgan. Shuningdek, mazkur yondashuvning bolalar ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'siri, ularning shaxsiy va jamiyatga moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan metodlar bayon etiladi. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va tarbiyachilar uchun foydali metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Tayanch so'zlar: Aksologik yondashuv, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, boshlang'ich sinflar o'quvchilari, qadriyatlar tizimi, ma'naviy tarbiya, axloqiy normalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy meros, shaxsiy rivojlanish, kompetensiya

Kirish. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning intellektual va ma'naviy shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda asosiy ijtimoiy va madaniy bilimlar, qadriyatlar tizimi hamda shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi. Shunday sharoitda aksologik yondashuv asosida ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi. [1;61-b.]

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – bu o'quvchilarning jamiyatga moslashuvchanligi, madaniy merosni anglash, o'qim-axloq normalariga rioya qilish, shuningdek, ijtimoiy muhitda to'g'ri xulq-atvorni namoyon etish qobiliyatidir. Ushbu kompetentlikni shakllantirishda aksologik yondashuv o'quvchilarga qadriyatlar tizimini tanlash va anglashni o'rgatadi. Maqola davomida aksologik yondashuvning mazmuni, usullari va boshlang'ich sinflar o'quvchilari tarbiyasidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Boshlang'ich ta'lim inson hayotidagi muhim bosqich bo'lib, bu davrda shaxsning asosiy ijtimoiy, madaniy va axloqiy sifatleri shakllana boshlaydi. O'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning o'qim va tarbiya jarayonini yaxshilash, balki jamiyatda faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat



2-TOM, 11-SON

qiladi. Shu ma'noda, aksologik yondashuv asosida tarbiya jarayonini tashkil etish o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularni anglash va amaliy hayotda qo'llashga o'rgatishda samarali yondashuv hisoblanadi. [2;13-b.]

Aksiologiya qadriyatlar haqida ilmiy bilimlarni o'rganadi. Aksologik yondashuv esa ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga axloqiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni singdirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuvning maqsadi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish va ularning dunyoqarashida mustahkam qadriyatlar tizimini shakllantirishdir.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik esa o'quvchilarning jamiyatda to'g'ri xulq-atvor ko'rsatish, madaniy merosni anglash, turli madaniy va ijtimoiy muhitda samarali muloqot qila olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. [5;18-b.]

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi bilimlarni o'zlashtirish, muloqot qilish va ijtimoiy tajriba orttirish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish imkoniga ega. Bu kompetentlik quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Madaniy qadriyatlarni anglash: Milliy madaniyat, urf-odatlar va an'analarni bilish.
2. Axloqiy normalarni o'rganish: Do'stlik, hurmat, halollik, adolat kabi axloqiy tamoyillarni amalda qo'llash.
3. Ijtimoiy muloqot qobiliyatlari: Jamiyatda o'zini tutish, muloqot madaniyatiga rioya qilish.
4. Shaxsiy mas'uliyatni his qilish: Oilada, maktabda va jamiyatda o'z mas'uliyatini anglash.

Aksologik yondashuvni amalga oshirish usullari

1. Qadriyatlar asosida o'qitish

Ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar mazmunini tushuntirish, ularga amal qilish ahamiyatini targ'ib qilish kerak. Masalan, boshlang'ich sinf darslarida "Mehnat – ulug' fazilat" kabi mavzularni o'qitish orqali mehnatsevarlik qadriyatini rivojlantirish mumkin. [6;19-b.]

2. Madaniy meros va badiiy asarlar orqali tarbiya

Bolalarni adabiyot va san'at asarlariga qiziqtirish, ularga xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatish milliy qadriyatlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Misol uchun, dostonlar va ertaklar orqali yaxshilik va yomonlikning mohiyatini tushuntirish samarali usullardan biridir.

3. Rolli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar

O'yin va mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy hayotda turli vaziyatlarni to'g'ri tushunish va ularga moslashish ko'nikmalarini shakllantiradi. Masalan, "Savob va gunoh"



2-TOM, 11-SON

mavzusida kichik rolli o'yinlarni tashkil qilish o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni anglashga yordam beradi.

4. Amaliy faoliyat va ijtimoiy loyihalar

O'quvchilarni ekologik tadbirlar, xayriya ishlarida ishtirok ettirish orqali ularning mas'uliyat hissini va jamiyatga foyda keltirish istagini shakllantirish mumkin.

5. Dialog asosida ta'lim

O'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga o'rgatish, ularga axloqiy va madaniy masalalarda mulohaza yuritish imkonini berish ijtimoiy kompetentligini oshiradi. [6;45-b.]

Aksiologik yondashuv asosida tashkil etilgan tarbiya natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi kompetensiyalarni egallaydilar:

Milliy va madaniy merosni qadrlashni o'rganadilar.

Ijtimoiy muhitda axloqiy me'yorlarga rioya qiladilar.

O'z xulq-atvorlari uchun mas'uliyatni his qiladilar.

Do'stlik, hamkorlik va hurmat tamoyillariga amal qiladilar.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish ularning kelajakda barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi. Aksologik yondashuv bu jarayonda asosiy rolni o'ynaydi, chunki bu yondashuv bolalarga qadriyatlarni singdirish va ularni kundalik hayotda qo'llash ko'nikmasini beradi. Pedagoglar va ota-onalar birgalikda harakat qilib, o'quvchilarning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhitni yaratishlari zarur. Bu esa jamiyatda madaniy va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlaydigan barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Choriyev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O'FMJ, 2006.* - 138 b.

2. *Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.* -

T.: "Noshir", 2013.- 720 b.

3. Shermuxamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. -

T.: "Fan va texnologiya". - 2014. - 512 b.

4. *Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish. -T.: Noshir, 2012. 320 b.*

5. *Sharipov Sh. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: p.f.d., diss. avtoref. -Toshkent, 2012. - 46 b.*

6. Ergasheva M.X., Ta'lim jarayonini tadqiq etishda sinergetik metodologiyaning ahamiyati, Zamonaviy ta'lim /Современное образование 2020, 10 (95), 32-39 b.

7. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.fan dok. diss. -T., 2005.- 391 b.



2-TOM, 11-SON

8. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va echimlari. // Pedagogik ta'lim. -2000.- 3- son. - B.11.

9. Nosirov K.J. IX-X asrlarda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari. (Al-Buxoriy va al-Farg'oniy asarlari misolida): p.f.n....diss. - T.: 2004.- 167 b.

